

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVSHI**  
**DSc.03/2025.27.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**KARIMOV MA'RUF IXTIYOROVICH**

**TOG'-KON SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI BARQAROR**  
**RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH**  
**METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03-"Sanoat iqtisodiyoti"**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)  
по экономическим наукам**

**Sontents of Dissertation Abstrast of the Dostor (DSc) in  
Esonomic Scienses**

**Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich**

Togʻ-kon sanoati korxonalari faoliyatini barqaror rivojlantirish  
mexanizmini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish..... 5

**Каримов Маъруф Ихтиёрович**

Совершенствование методологии формирования механизма  
устойчивого развития горнодобывающих предприятий. 27

**Karimov Maruf Ikhtiyorovich**

Improving the methodology for forming a mechanism for sustainable  
development of mining enterprises 53

**Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 61

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVSHI  
DSc.03/2025.27.I.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**KARIMOV MA'RUF IXTIYOROVICH**

**TOG'-KON SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI BARQAROR  
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH  
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03-“Sanoat iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.DSc/Iqt1023 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Muratova Shoxista Nimatullayevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tursunxodjayev Marat Lutfullayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Umarov Farxod Yarkulovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvshi DSc.03/2025.27.I.02.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ da soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent sh., Universitet ko‘chasi, 2-uy., Tel.: (+99871) 207-07-32; e-mail: [tstu-info@tdtu.uz](mailto:tstu-info@tdtu.uz))

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent sh., Universitet ko‘chasi, 2-uy., Tel.: (+99871) 207-14-70

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.)

**M.A.Ikramov**

Ilmiy darajalar beruvshi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**O.I.Begmullayev**

Ilmiy darajalar beruvshi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari falsafa  
doktori, dotsent

**G.J.Allayeva**

Ilmiy darajalar beruvshi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida iqtisodiyotning raqamli ko‘rinishga o‘tish sharoitida sanoat korxonalarining iqtisodiy, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy barqarorligini rivojlantirish masalalariga yetakchi yo‘nalish sifatida qaralmoqda. BMT bosh Assambleyasining 74-sessiyasida 2021-yil “Barqaror rivojlanish yo‘lida xalqaro kreativ iqtisodiyot yili”<sup>1</sup> deb e‘lon qilingandi. Jahon iqtisodiyotining raqamlashtirilishi texnologik jihatdan barqaror rivojlanishni, ikkinchi tomondan esa sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi, bu tarmoqdagi olib borilayotgan faoliyat camaradorligini yanada oshirish zaruratini ko‘rsatib bermoqda.

Jahonda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi ixtisoslashgan bozorlarda sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarda tizim tashkil qiluvchi tarmoqlar sifatida tog‘-kon sanoati korxonalari faoliyatini barqaror rivojlantirishga oid tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida barqarorlikni oshirishning ijtimoiy, moliyaviy, texnologik, dasturiy, iqtisodiy kabi yo‘nalishlarini muvofiq tarzda rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, investitsion resurslarni samarali jalb qilish hisobiga ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish, mintaqalararo va global darajada barqarorlikni ta‘minlash kabi mavzular yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda sanoat korxonalarini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqish, investitsion faoliyatni yanada rivojlantirish, nisbiy ustunliklarga ega bo‘lgan metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika kabi sohalar hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlarini iqtisodiyotimiz “drayverlari”ga aylantirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli geologiya tizimini yaratish doirasida «Yer minerallari va tog‘ jinslari milliy elektron bazasini yaratish» bo‘yicha axborot tizimini joriy etish”<sup>2</sup>. Bu vazifalarni amalga oshirishda sanoat tarmog‘ining barqaror rivojlanishini e‘tiborga olgan holda samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish, ishlab chiqarish mexanizmlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, barqaror rivojlanishning me‘yoriy chegaralarini baholash uslubiyotini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 iyuldagi PF-6244-son “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021 yil 2 martdagi PQ-5011-son “Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga

<sup>1</sup> Креатив иктисодиёт бўйича IV Бутунжаҳон анжумани <https://gov.uz/uz/news/view/19871>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ““Рaqамли Ўзбекистон — 2030” Стратегиясини тасдиqlаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон Фармони

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** <sup>3</sup>

Jahonda sanoat korxonalarida barqaror rivojlanish rivojlanish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar, jumladan quyidagi oliy ta'lim muassasalari, tashkilotlar va ilmiy markazlar tomonidan amalga oshirilmoqda: University of Texas at Austin, (AQSh); Centre for efficiency and productivity analysis, Department of econometrics, University of New England, (Avstraliya); Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), (Italiya); Peking University, Xitoy; International Food Policy Research Institute, (AQSh); The University of Queensland, (Avstraliya), Toshkent davlati texnika universiteti (O'zbekiston)

Jahonda sanoat korxonalarida barqaror rivojlanishi xususidagi yondashuvlarga oid jahonda olib borilgan izlanishlar bo'yicha qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: barqaror rivojlanish o'zgaruvchan va o'zgarmas ishlab chiqarish texnologiyalari sharoitida hisoblash uslubiyatlari taklif etilgan (University of Texas at Austin, (AQSh); barqaror rivojlanish omillari, mehnat unumdorligini hisoblash usullari ishlab chiqilgan (Centre for efficiency and productivity analysis, Department of econometrics, University of New England, (Avstraliya); tarmoqlararo aloqalarga ko'ra hududlarda barqaror rivojlanish uchun oqilona foydalanish yo'llari asoslangan (Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), (Italiya); barqaror rivojlanishning davlat byudjetiga ta'siri ishlab chiqilgan (Peking University, Xitoy; International Food Policy Research Institute, (AQSh); iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror rivojlanish va ularga ta'sir etuvchi sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik asoslangan (The University of Queensland, (Avstraliya).

Dunyoda sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishini nazariy-metodologik, uslubiy va iqtisodiy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: tog'-kon sanoati faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida xorijiy investitsiyalar va xorijiy

---

<sup>3</sup>Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi:<https://www.weforum.org>; [www.harvard.edu](http://www.harvard.edu); <https://www.piie.com>; <https://www.uchicago.edu>; <http://unctad.org>; <https://www.controlrisks.com>; <http://www.eiu.com>; <https://www.montpellier-bs.com>; <https://sustainabledevelopment.un.org>; [www.ox.ac.uk](http://www.ox.ac.uk); <https://www.tdiu.uz>; <https://www.ifmr.uz> Московский автомобильно-дорожный государственный технический университет Dunning J. The Globalization of Business. – London: Routledge, 1993 –p.67, Pfifer I. Three Types of Risk Assessment.–New York: Springer, 1995.–p.44.,Piontkivska I. Survey of International Foreign Investment Promotion Practices. – 2003. – p. 54-56. [www.bleyzerfoundation.com](http://www.bleyzerfoundation.com), Robert B. Stobaugh. How to Analyze Foreign Investment Climates // Harvard Business Review, 1969. – p.89. [www.raexpert.ru/researches/regions](http://www.raexpert.ru/researches/regions), Sharpe W.F. Portfolio Theory and Capital Markets. – New York: McGraw-Hill, 1970. – p.26., World Development Report 2005. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org), UNCTAD, WIR 2006: FDI from Developing and Transition Economies, [www.unctad.org](http://www.unctad.org), Savard K., Wickramarachi H., Ross C., Prabha A. Global Opportunity Index: Attracting Foreign Investment // Milken Institute, USA, 2013; Janton-Drozdzowska E., Majewska M., Mickiewicz A. Poland Investment attractiveness of Central and Eastern European countries in the light of new locational advantages development // University in Poznan, 2015; va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

kreditlarni jalb qilishni takomillashtirish; hudlarning inovasion faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish; sanoat korxonalarining investitsion qarorlarini qabul qilishda ichki daromadlilik darajasining natijasiga tayanish imkoniyatlarini kengaytirish; qisqa muddatli davr uchun barqaror rivojlanishni ta'minlashda yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish.

### **Muammoning o'rganilganlik darajasi.**

Korxonaning barqaror rivojlanishi xususidagi yondashuvlar hamda amaliy jihatlarini A.Smit, A.Marshall, Dj.Keyns, D.N.Medouz, D.L.Medouz, Y.Randers, V.V.Berens III, G.Deyli, R.Kostanza, F.B.Golli<sup>4</sup> kabi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan A.A.Gibadullin, O.N.Grigorova, I.G.Gorlovskaya, D.S.Kondaurova, D.S.Filippenko, A.V.Ilicheva, N.V.Shesterikova, YE.S.Gracheva, A.V.Baranov, A.B.Shestakov<sup>5</sup> va boshqalar tomonidan sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining mazmun va mohiyati, iqtisodiy mexnizmlarini takomillashtirishdagi ahamiyatiga bag'ishlangan ilmiy ishlari bilan tarmoqdagi korxonalarning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishgan.

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining mazmun va mohiyati, mamlakat iktisodiyotini liberallashtirish va diversifikatsion jarayonlarni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda investitsiyalarning samaradorligini oshirish muammolari mahalliy iqtisodchi olimlardan M.A.Ikramov, B.T.Salimov, N.M.Maxmudov, M.T.Asqarova, M.A.Maxkamova, G.J.Allayeva, A.Ortikov, M.P.Narzikulov, E.X.Maxmudov, F.Karimov<sup>6</sup> va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mazkur yo'nalishda keltirilgan olimlarning tadqiq etilayotgan muammoni hal etish bo'yicha qo'shgan hissalarini inobatga olgan holda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining mexnizmlarini takomillashtirish va ularning

<sup>4</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Издательство социально- экономической литературы, 1962. /Маршал А. Принципы экономической науки. – Т.1., М.: Изд. «Прогресс». 1993. / Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. – М.: ЭКСМО, 2007. 960 с. / The Limits To Growth. A Report For The Club Of Rome's Project On the Predicament Of Mankind / Donella H. Meadows, Dennis L. Meadows, Jorgen Randers, William W. Behrens III // Universe Books, New York, 1972 – С. 205. Costanza R., Daly H.E. Natural Capital and Sustainable Development // Conservation Biology. Mar., 1992. Vol. 6. No. 1. pp. 37-46 / Golley F.B. History of the Ecosystem Concept in Ecology. 1993. (New Haven, CT: Yale University Press)

<sup>5</sup> Гибадуллин А.А. Механизмы устойчивого развития производственных комплексов электроэнергетики // Известия Тульского Государственного Университета. Экономические и юридические науки. Тула: ТулГУ, 2013. Вып. 3. Ч. 1. С. 56-62.; Григорова О.Н. Построение модели механизма устойчивого развития предприятия на основе регулирования инновационной деятельности // Актуальные проблемы менеджмента, маркетинга и информационных технологий: Сборник научных трудов. Воронеж: ИММиФ, 2014. Вып. 5. С. 162-166.; Горловская И.Г. Особенности формирования механизма устойчивого развития промышленных предприятий в условиях перехода к новому технологическому укладу // Экономические науки. 2010. № 70. С. 203-206.; Кондаурова Д.С. Совершенствование механизма устойчивого развития промышленного предприятия // Экономика, управление, финансы (II): Материалы междунар. заоч. науч. конф. Пермь: Меркурий, 2012. С. 130-132.; Филиппенко Д.С. Организационно-экономическое обеспечение устойчивого развития предприятий в условиях глобализации экономики: дис. канд. экон. наук: 08.00.05. Нижний Новгород, 2014. 178 с.; Ильичева А.В. Формирование механизма оценки устойчивого развития территориально-промышленного комплекса: автореф. диссертации канд. экон. наук: 08.00.05. М.: 2014. 24 с.; Н.В.Шестерикова. Формирование стратегии устойчивого развития предприятия на основе системы сбалансированных показателей: автореф. диссертации канд. экон. наук: 08.00.05. Нижний Новгород, 2009. 24 с.; Грачева Е.С. Формирование организационно-экономического механизма повышения конкурентоспособности промышленных предприятий: диссертация канд. экон. наук: 08.00.05. Самара, 2012. 45 с.; Баранов А.В. Методы и инструментарий обеспечения устойчивого инновационного развития промышленных предприятий: автореф. дис. канд экон. наук: 08.00.05. СПб.: 2013. 19 с.; Шестаков А.Б. Механизм планирования устойчивого развития промышленного предприятия: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05. М.: 2015. 23 с.

<sup>6</sup> Икратов М. Стимулирование роста конечных результатов деятельности промышленных предприятий в условиях рыночных отношений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Санкт-Петербург, 1992. 33 с.; Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона (на примере Сырдарьинской и Джизакской областей Республики Узбекистан): дисс. д.э.н. Т.: 1992. 38 с.; Махмудов Н.М., Аскарова М. Макроиктисодий тахлил ва прогноз қилиш. Дарслик.

samaradorligini baholash yo'llari kabi masalalar respublikamiz iqtisodiy adabiyotlarida yetarlicha darajada yoritilmagan. Mazkur dissertatsiya ishida ushbu muammoning yechimi keng yoritib berilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №F1-100 «O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqish va uning shakllanish mexanizmlarini yaratishning ilmiy asoslari» mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli iqtisodiyot sharoitida tog'-kon sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish va o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos jihatlari tadqiq etish;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish salohiyatini oshirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini innovasion va ekoboshqaruv tizimlarini tahlil qilish;

“OKMK” aksiyadorlik jamiyatini barqaror rivojlantirishga mo'ljallangan “Rivojlanish strategiyasi”ni takomillashtirish yo'llarini tahlil qilish va asoslash;

“OKMK” aksiyadorlik jamiyatini barqaror rivojlantirishdagi raqobatbardoshlik muhitini o'rganish va ta'sir etayotgan omillarni aniqlash;

sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy strategiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirish;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining meyoriy chegaralarini aniqlash va samaradorligini baholash yo'llarini ishlab chiqish;

sanoat korxonasini barqaror rivojlantirish strategiyasining algoritmi va mexanizmini takomillashtirish;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini baholashning integrallashgan algoritmini ishlab chiqish.

“OKMK” aksiyadorlik jamiyatini barqaror rivojlantirishga mo'ljallangan 2035 yilgacha bo'lgan prognoz ko'ratkichlari tahlilini asoslash;

tog'-kon sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalari, jumladan “OKMK” aksiyadorlik jamiyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** “OKMK” aksiyadorlik jamiyati korxonasini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, prognozlash va boshqa standart usullardan foydalanilgan.



**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

togʻ-kon sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirishda qayta ishlash jarayonidagi harajatlarni kamaytirish boʻyicha strategik rejalarini amalga oshirishda kauzal atributsion mexnizmi taklif etilgan;

Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini taʼminlashda iqtisodiy-ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishga asoslangan diskretizatsiya jarayonining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi strategiyaning algoritmi ilmiy asosda takomillashtirildi;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining integrallashgan modeli va meyoriy chegaralarini omologatsiyalash asosida baholash koʻrsatkichlari takomillashtirilgan;

“OKMK” aksiyadorlik jamiyati qoʻshma korxonasi barqaror rivojlanishining raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy tendetsiyalarni hisobga oluvchi metodologiyasi takomillashtirilgan;

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati boyicha ishlab chiqarish hajmiga taʼsir etuvchi omillarni eʼtiborga olgan holda mahsulot sotishdan tushadigan jami daromadlar hajmining 2035-yilgacha bolgan davrga moljallangan prognoz korsatkichlari ishlab chiqilgan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonasining barqaror rivojlanishiga taʼsir etuvchi turli darajadagi omillar iyerarxiyasi, ularning taʼsir doirasi va riskni oldini olish yoʻllari keltirib oʻtilgan;

sanoat korxonalari barqaror rivojlantirishning nazariy asoslari va jarayonlarni amalga oshirish tartibi va oʻziga xos xususiyatlari ochib berildi;

2035 yilgacha sanoatni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari va barqaror rivojlanishni kuchaytirishga zamin yaratuvchi algoritmli tadbirlar ketma-ketligi berildi;

sanoat korxonasining barqaror rivojlanishini taʼminlashga koʻmaklashuvchi moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik koʻrsatkichlar dinamikasi hamda ularni rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan.

“OKMK” aksiyadorlik jamiyati barqaror rivojlanishining raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy tendetsiyalarni hisobga oluvchi metodologiyasi ishlab chiqildi;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining integrallashgan modeli va meyoriy chegaralarini omologatsiyalash asosida baholash koʻrsatkichlarining usuli takomillashtirildi;

sanoat korxonasini barqaror rivojlantirishda diskretizatsiya jarayonining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi strategiyaning algoritmi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonshiligi.** qoʻllanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, maʼlumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi, innovatsion rivojlanish vazirligi, “OKMK” aksiyadorlik jamiyati va unga qarashli aloqador korxonalarning

statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, tavsiya va xulosalar sanoat korxonalarida, xususan "OKMK" aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy faoliyatning barqaror rivojlanish mexanizmlarining samaradorligini oshirish, kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda, bu yo'nalishdagi faoliyat bilan bog'liq jarayonlarni rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoat korxonalarining barqaror strategik rivojlantirish dasturini shakllantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish, investitsion resurslardan samarali va maqsadli foydalanish, mutasaddi korxonalarining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va moliyaviy faoliyatini yo'lga qo'yishda, korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidagi barqarorligini oshirish chora-tadbirlari majmyini ishlab chiqishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida tog'-kon sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

tog'-kon sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirishda qayta ishlash jarayonidagi harajatlarni kamaytirish bo'yicha strategik rejalarni amalga oshirishda kauzal atribusion mexnizmi taklifi "OKMK" aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasida joriy etilgan ("OKMK" aksiyadorlik jamiyatining 2025 yil 4 apreldagi CL-001128-sonli ma'lumot-nomasi). Taklif "OKMK" AJning operasion faoliyati barqarorligini 0,2 % ga ta'minlashga erishishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda iqtisodiy-ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishga asoslangan diskretizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi strategiyaning algoritmi takomillashtirish taklifi "OKMK" aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasida joriy etilgan ("OKMK" AJning 2025 yil 4 apreldagi CL-001128-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif sanoat korxona-sining iqtisodiy faoliyati samaradorligini 1,8 % oshirish imkonini oshirishda muayyan darajada xizmat qilgan;

sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining integrallashgan modeli va me'yoriy chegaralarini omologatsiyalash asosida baholash ko'rsatkichlarini takomillashtirish taklifi "OKMK" AJda joriy etilgan ("OKMK" AJning 2025 yil 4 apreldagi CL-001128-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumini 2025 yil ikkinchi choragida sotishdan tushgan sof daromad - 9,065,292,257 ming so'mga yetishi va sof foydaning oshishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

"OKMK" aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasi barqaror rivojlanishining raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy tendesiyalarni hisobga oluvchi takomillashtirilgan metodologiyasi "OKMK" aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasida joriy etilgan ("OKMK" AJning 2025 yil 4 apreldagi CL-001128-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif AJ faoliyatini barqaror rivojlanishining qoniqarli

me'yori 0,6-0,81 darajasi ko'rsatkichiga erishishga muayyan darajada xizmat qilgan;

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bo'yicha ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olgan holda mahsulot sotishdan tushadigan jami daromadlar hajmining 2035-yilgacha bolgan davrga mo'ljallangan prognoz korsatkichlari bo'yicha taklif “OKMK” aksiyadorlik jamiyatida joriy etilgan (“OKMK” AJning 2025 yildagi 04 apreldagi CL-001128-sonli ma'lumotnomasi). Taklif 2035 yillarga kelib, “OKMK” aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasida daromad ko'rsatkichini 1,3% ga oshishiga muayyan darajada muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Maskur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallardan 12 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika hamda 5 tasi nufuzli xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 215 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Sanoat korxonalari faoliyatini barqaror rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan bo'lib, unda tog'-kon sanoatini barqaror rivojlantirishning ilmiy-uslubiy jihatlari O'zbekistonda tog'-kon sanoati korxonalari rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari, tog'-kon sanoati korxonalari faoliyatini barqarorlashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, barqaror rivojlanish tendensiyalarining shart-sharoitlari va tamoyillari hamda muallif ta'rifi keltirilgan.

**“Barqaror rivojlanish” tushunchasining ta’riflari<sup>7</sup>**

| <b>Muallif</b>                                                        | <b>Ta’riflar</b>                                                                                                                                                                                                                                                             |
|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| S.P. Furkina <sup>8</sup>                                             | Yuqori sifat va miqdoriy o’sishni ta’minlaydigan korxona faoliyatidagi parametrlarning uzluksiz hamda ijobiy o’zgarishidir.                                                                                                                                                  |
| A.E.Mixaylova <sup>9</sup>                                            | Korxonaning shunday faoliyat yuritishidirki, unda tashqi omillarning ta’sirida strategik maqsadlarga erishish yaxlitligini saqlab qolishga yordam beradi.                                                                                                                    |
| S.A.Rassvetov,<br>A.N.Tershov <sup>10</sup>                           | Ustuvor yo’nalishlarni amalga oshiradigan tizim holatidagi o’zgarishlarni ta’minlovchi usullar, texnologiyalar va manbalar haqidagi hissiy qarashlar, empirik qonuniyatlar va nazariyalarni integratsiyalaydigan mantiqiy konstruksiyadir.                                   |
| T.V.Uskova <sup>11</sup>                                              | Barqaror rivojlanish - bu ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatning joriy va kelajakdagi qiymatining salohiyatini oshirishda texnologik rivojlanishga yo’naltirilgan investitsiyalarning yo’nalishlari va resurslardan oqilona foydalanish jarayonidagi o’zgarishlardir. |
| N.V. Rozenberg,<br>G.P.<br>Krasnoshenkov<br>Yu.M.Krilov <sup>12</sup> | Barqaror rivojlanish bu - qo’llab-quvvatlanadigan iqtisodiy rivojlanish bo’lib, kelajak avlodlar uchun mavjud resurslarning so’nib borish xavfiga ta’sir ko’rsatmaslikdir.                                                                                                   |
| A.A.Pikovskiy                                                         | Barqaror rivojlanish - bu hozirgi paytda mavjud bo’lgan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning bir turi bo’lib, kelajakda ushbu imnoniyatlarga ega bo’lish xavfini tug’dirmaydigan jarayondir.                                                                                |
| <b>Muallif ta’rifi</b>                                                | Barqaror rivojlanish - bu hozirgi ehtiyojlarga javob beradigan, ammo kelajak avlodlarning o’z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga xavf solmaydigan o’sishdir.                                                                                                               |

Tadqiqotda asoslab berilgan tizimli yondashuvga rioya qilgan holda muallif tomonidan tog’-kon sanoati korxonalarida «Barqaror rivojlanish»ni ta’riflashga asosiy tushunchalar va yondashuvlar to’plami tizimlashtirilgan(1-jadval).

Tog’-kon infratuzilmasini barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tog’-kon logistikasi, ishlab chiqarish muhitining sifati, biznes va yashash joylari bilan bog’liq muammolarni hal qilish uchun “aqlli” va “xavfsiz” shahar loyihalarini izchil amalga oshirish ko’zda tutilgan.

Tadqiqotda muallif tomonidan barqaror rivojlanishni ta’minlashga tizimli yondashuv ishlab chiqilgan bo’lib, tog’-kon sanoatini barqaror rivojlanishining takomillashtirilgan mexanizm sifatida ko’rib chiqishni nazarda tutadi (1-rasm).

<sup>7</sup> Muallif ishlanamsi


<sup>8</sup> Фукина С.П. К вопросу об устойчивом развитии предприятия в нестабильной среде / Актуальные проблемы экономики и права. – 2008. – № 4. – С. 48–55.

<sup>9</sup> Михайлова А.Е., Рассветов С.А. Концептуальный подход к устойчивому развитию промышленных предприятий в условиях модернизации экономики / Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2012. – № 3 (107). – С. 59–63.

<sup>10</sup> Рассветов С.А., Ершов А.Н. Исследование резервов управления устойчивым развитием промышленного предприятия / Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2012. – № 7 (111). – С. 125–128.

<sup>11</sup> Ускова Т.В. Управление устойчивым развитием региона. Вологда: ИСЭРТ, 2009. 355 с.

<sup>12</sup> Розенберг Н.В. Социокультурная составляющая понятия «Регион» // Аналитика культурологии. 2005. № 4. С. 148–150.



**1-rasm. Tog‘-kon sanoati korxonalarining barqaror rivojlantirishning kauzal atributsion mexanizmi<sup>13</sup>**

Tog‘-kon sanoati korxonalarining faoliyatini tahlil qilish uchun muallif uning tarkibida muayyan faoliyat turi uchun mas’ul bo‘lgan monitoring tizimlarni taklif etadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, tog‘-kon majmuasi geoma'lumotlar bazasini yaratish barqarorlikka, navigatsiya geoma'lumotlar bazasini yaratish – ixtisoslashtirilgan kartografik majmualarni sotib olish, kosmik fotosuratlar, topografik va tematik xaritalarni sotib olish, ish yuritish, ixtisoslashtirilgan geopartlar va geoplatformani ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Bizning hisob kitoblarimizga ko‘ra, kauzal atributsion mexanizmni kompleks qo‘llash, tog‘-kon tizimlarida boshqaruv va axborot texnologiyalari, buning natijasida vaqt, pul, energiya va atrof-muhit hamda tog‘-kon tizimlarida iqtisodiy faoliyati samaradorligini yana 1,8 % oshirish imkonini beradi.

Ikkinchi bob «**OKMK AJ korxonasida ishlab chiqarish faoliyati va rivojlanishining zamonaviy holati**» deb nomlangan. Sanoat korxonalari faoliyatining iqtisodiy tamoyillari, tog‘-kon ta’minlash kontekstida innovatsiyalar va biznesni rivojlantirish uslubiyati ko‘rib chiqilgan, tog‘-kon tarmoqlarining texnologik rivojlanish istiqbollari va raqamlashtirishning dolzarbligini, shuningdek, tog‘-kon korxonalarini barqaror rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarini hisobga oladigan iqtisodiy usullarini baholashga bag‘ishlangan. Ushbu korxonalarning ilmiy-texnik salohiyati hozirgi rivojlanish holatidan kelib chiqib, O‘zbekiston tog‘-kon sanoati korxonalari rivojlanishining iqtisodiy holati tahlil qilindi. (2-jadval).

<sup>13</sup> Mavjud adabiyotlardan foydalanilgan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan


**2-jadval**

**“OKMK” aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy faoliyati tahlili<sup>14</sup>**

| T/p                                      | Ko‘psatkich<br>ning nomi                                                                         | Meyopiy<br>ko‘rsatkichlar                                                                       | Yillar |       |       |       |       |       |       |       |       |       |       |
|------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
|                                          |                                                                                                  |                                                                                                 | 2014   | 2015  | 2016  | 2017  | 2018  | 2019  | 2020  | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  |
| 1. Pentabellik holati                    |                                                                                                  |                                                                                                 |        |       |       |       |       |       |       |       |       |       |       |
| 1.1.                                     | O‘z<br>mablag‘larining<br>rentabelligi<br>(ROE-Return<br>on Equity)                              | ko‘psatkich<br>pasayib borsa<br>yaxshi emas, o‘sib<br>borsa yaxshi holat<br>hisoblanadi         | 0,07   | 0,09  | 0,08  | 0,06  | 0,08  | 0,07  | 0,06  | 0,08  | 0,06  | 0,06  | 0,06  |
| 1.2.                                     | Investitsiyalarni<br>qaytarishdagi<br>aktivlar<br>pentabelligi<br>(ROI-Return on<br>Investments) | ko‘psatkich<br>pasayib borsa<br>kabel sanoati<br>korxonasi uchun<br>yaxshi holat<br>hisoblanadi | 0,04   | 0,04  | 0,037 | 0,03  | 0,02  | 0,044 | 0,037 | 0,037 | 0,028 | 0,02  | 0,02  |
| 1.3.                                     | Xarajatlar<br>pentabelligi                                                                       | ko‘rsatkich o‘sib<br>borsa yaxshi emas,<br>pasayib borsa<br>yaxshi xolat<br>hicoblanadi         | 0,23   | 0,20  | 0,30  | 0,18  | 0,18  | 0,229 | 0,205 | 0,305 | 0,170 | 0,18  | 0,19  |
| 1.4.                                     | Savdo<br>pentabelligi                                                                            | ko‘psatkich o‘sib<br>borsa yaxshi holat,<br>pasayib borsa<br>yaxshi emas<br>hicoblanadi         | 0,166  | 0,151 | 0,188 | 0,117 | 0,15  | 0,165 | 0,151 | 0,188 | 0,117 | 0,15  | 0,16  |
| 1.5.                                     | Savdo<br>marjasining<br>meyori                                                                   | -                                                                                               | 0,281  | 0,264 | 0,384 | 0,308 | 0,349 | 0,281 | 0,264 | 0,384 | 0,308 | 0,349 | 0,381 |
| 2. Aktivlardan foydalanish samaradorligi |                                                                                                  |                                                                                                 |        |       |       |       |       |       |       |       |       |       |       |
| 2.1.                                     | Fond qaytimi                                                                                     | ko‘rsatkich<br>pasayib borsa<br>yaxshi emas,<br>o‘sib borsa yaxshi<br>xolat hisoblanadi         | 0,339  | 0,315 | 0,352 | 0,387 | 0,356 | 0,339 | 0,315 | 0,352 | 0,387 | 0,356 | 0,194 |
| 2.2.                                     | Aktivlarning<br>aylanuvchanligi                                                                  | -                                                                                               | 0,27   | 0,25  | 0,196 | 0,24  | 0,23  | 0,269 | 0,246 | 0,196 | 0,241 | 0,234 | 0,127 |

Kombinatda yiliga 9 trillion so‘mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda va uning asosiy ulushi mis mahsulotlariga to‘g‘ri keladi (50% dan ortiq). Uning ichki bozorga sotilishi hisobiga kombinat 4,5 trillion so‘mdan ortiq daromad oladi, shundan 2,5 trillion so‘mi davlatga qimmatbaho metallar, 1,2 trillion so‘mi esa mahalliy korxonalarga mis mahsulotlari sotishdan tushadi. Lekin 2023 va 2024 yillarda eksport hajmini sezilarli darajada pasayishni ko‘rishmiz mumkin bu asosan ya'ni 2024-yilda bu ko‘rsatkich 6 % ga kamaygan. Bunga asosiy sabab ichki bozorga talab oshishi ya'ni kombinat mahsulotlari ichki iste'molni qondirishga ko‘proq yo‘naltirilgan — bu eksport hajmiga salbiy ta’sir qilgan. Keyingi asosiy eksport tovarlari — mis, rux, qo‘rg‘oshin konsentrati va molibden — hajmlarining pasayishi(2-rasm).

<sup>14</sup> “OKMK” aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi




**2-rasm. “OKMK” aksiyadorlik jamiyatining eksport hajmi grafigi<sup>15</sup>**

Eksport ko‘rsatkichlari 2017 yildan 2022 yilga qadar o‘shish tendensiyalariga ega. 2019 yilda eksport hajmining 2018 yilga nisbatan pasayishi COVID pandemiyasi davridagi logistika jarayonlaridagi muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan. 2022 yilda eksport hajmini sezilarli darajada oshishi xorijiy iste‘molchilar tomonidan 66289 tonna katodli mis (+6,2%), 6291 tonna mis novda (+65,6%), 4482 tonna mis quvurlar (+69,1%), 11453 tonna mis sulfat (ikki martadan ortiq) bo‘lgan talabning oshishi bilan belgilandi. Shu bilan birga, yetkazib berish geografiyasining diversifikatsiyasi asosan yangi mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq: mis sim, mis quvurlar, rux belilasi, oq sement va boshqalar(2-rasm).

Uchinchi bob «**Olmalik kon-metallurgiya kombinati atsionerlik jamiyati korxonalarida barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari**» deb nomlangan bo‘lib, barqaror rivojlantirishda sun‘iy intellektdan foydalanish hisobiga tashish qobiliyatidan samarali foydalanib, tog‘-kon sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini baholashga bag‘ishlangan. Iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida korxona tegishli siyosati ishlab chiqildiki, quyidagilar uning asosiy bosqichlari hisoblanadi (3-rasm). Unga ko‘ra ishlab chiqilgan maqsadlar va tamoyillar korxonaning boshqa strategik yo‘nalishlariga mutanosib bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. sanoat korxonasini barqaror rivojlantirishda diskretizatsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi strategiyaning algoritmi faoliyati barqaror rivojlanishining 0,2 % ga o‘shishiga erishilgan.

<sup>15</sup> “OKMK” aksiyadorlik jamiyati ma’lumotlari tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



**3-rasm. Sanoat korxonasining barqaror rivojlanishda diskretizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi strategiyaning algoritmi** <sup>16</sup>

Hisob kitoblarimiz asosida togʻ-kon sanoati korxonalarining barqaror rivojlantirishning integrallashgan modeli va meyoriy chegaralarini omologatsiyalash asosida baholash koʻrsatkichlari baholash uchun ishlatiladigan maʼlumotlarda hisoblab koʻrsatildi (3-jadval).

<sup>16</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi



**Sanoat korxonalari barqaror rivojlanishini baholashning amaldagi usullari<sup>17</sup>**

| Usul muallifi                                    | Hisoblash uchun formulalar                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | Tatbiq etish xususiyatlari                                                                                                                                                                   |
|--------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
